SIYOSAT NAZARIYASI VA METODOLOGIYA FANINING PREDMETI VA MAQSADI

Omonov Shaxzod
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekistonMilliy universiteti
3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Bugungi kunda, mamlakatimizda, fuqarolarning siyosatshunoslikni o‘rganish zaruriyati yanada ortdi. Buning boisi shuki, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va jamiyatni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish har bir kishi oldiga g‘oyat katta talablarni qo‘ymoqda. Undan ilgarigidek qaram, mute, beparvo bo‘lib qolishlik emas, balki erkin, mustaqil bo‘lishni talab qilinmoqda. Ijtimoiy hayotning turli sohalarida siyosiy faoliyatning, davlat, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlarining ish usullarini, siyosat va insonning, davlat va jamiyatning o‘zaro munosabatini, siyosatshunoslikning asosiy tushunchalarini tushunishga tobora ko‘proq ichki ehtiyoj paydo bo‘lmoqda. Ushbu maqolada Siyosat nazariyasi va metodologiya fanining predmeti va maqsadi haqida so‘z yuritiladi.
Kalit so‘zlar: Markizm, nazariya, Frankfurt, lenizm, mafkura.

Dastlabki davlat hokimiyati turlari, ko‘rinishlari, shakllari o‘z tizimi jihatidan ancha sodda tuzilgan bo‘lib, uzoq tarixiy taraqqiyot bosqichlaridan o‘tib, hozirgi turlar, ko‘rinishlar, shakllar darajasiga ko‘tarildi, boy amaliy tajriba ortdirdi. Shu yo‘sinda "siyosat bilan shug'ullanish" oddiydan-murakkabga, ozchilik ishidan butun jamiyat faoliyatiga aylandi. Ko‘p asrlik tariximiz shuni ko‘rsatadiki, inson dunyoqarashining shakllanishida ma'rifatning, xususan, ijtimoiy fanlarning o‘rni beqiyos. Bu Jamiyatshunoslik bo‘ladimi, tarix, falsafa, siyosatshunoslik bo‘ladimi, psixologiya yoki iqtisod bo‘ladimi ularning barchasi odamning intellektual kamolotiga erishuvida katta ta'sir kuchiga ega", deb ta'kidlashlari bejiz emas.

Jahon siyosiy hayotida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar va mavjud muammolar o‘zini ma’rifat deb hisoblashgan har bir kishidan siyosatni chuqurror bilishni, u bilan shug'ullanishni talab etmoqda. Politologiya siyosatni ijtimoiy xodisa sifatida jamiyat hayotining barcha sohalarida namoyon bo‘lishini ifodalaydi. Jamiyat hayotida biron bir siyosiy o‘zgarish, siyosiy voqea hodisalar siyosatning ta'siridan chetga qolmaydi. Shu bois politologiya siyosiy fan sifatida jamiyat hayotining turli sohalarida bo‘ladigan o‘zgarishlarda siyosatning o‘rni va rolini ilmiy-nazariy jihatdan asoslaydi.

Bu xol, shubxasiz, uning boshqa siyosiy fanlar siyosiy falsafa, siyosiy iqtisod, xalqaro munosabatlarning siyosiy nazariyasi, geosiyosat, siyosiy tarix, siyosiy etika, sotsiologiya va boshqalar bilan bog'liqligini o‘zaro aloqalarini ifodalaydi. sistemasi, Davlat, ijtimoiy guruhlar, siyosiy ong va siyosiy madaniyat kabi masalalar o‘rganiladi. Bu masalalarni o‘rganishga ayni bir xilda yondoshilmaydi, xolbuki ularda bu masalalar har bir fanning predmeti doirasida o‘rganiladi. Yoki bo‘lmasa, politologiya, "iqtisodiy nazariya" fani bilan ham o‘zaro aloqada bo‘ladi.

Agar "iqtisodiy nazariya" fanida jamiyatning ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlari, tovar, pul, moliya, kredit, mulkchilik shakllari, xalqaro iqtisodiy aloqalarga doir masalalar nazariy jihatdan o‘rganilsa, politologiyada esa, iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish, iqtisodiy jarayonlarni davlat, siyosiy partiyalar va harakatlar, siyosiy tashkilotlar tomonidan tartibga solib turish tamoyillari ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Politologiya bilan chambarchas bog'liq va yaqin aloqada bo‘lgan siyosiy fanlardan biri siyosiy sotsiologiyadir. Bu fanlarda Jamiyat hayotida bo‘ladigan o‘zgarishlarda siyosatning roli va ahamiyati turlicha yondoshuv asosida ochib beriladi. Sotsiologiyada siyosatning Jamiyatga munosabatini ifodalovchi masalalar asosan empirik -sotsiologik usullar ya'ni so‘rov anketalashtirish, tajriba o‘tkazish, statistik tahlil qilish, matematik modillashtirish orqali o‘rganilsa, politologiyada ham shu usul

orqali Jamiyatning siyosiy hayoti va siyosiy munosabatlarida ruy beradigan o‘zgarishlarning ayrim Jihatlarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab beradi. Politologiya va Sotsiologiyaning birligi ularning bitta fan ekanligini bildirmaydi. Politologiya sof siyosiy fanlarni o‘rgansa, Sotsiologiyada asosiy e'tibor Ijtimoiy masalalari qaratiladi. Masalan, sinfiy va milliy munosabatlar, oila va turmush munosabatlari masalalari Sotsiologiya fanida o‘rganiladigan masalalardir. Politologiya Sotsiologiyadan farq qilib, bu masalalarni har birini alohida-alohida o‘rganmay, balki ularni hal etishda siyosatning kuchini, ta'sirini, ahamiyatini ko‘rsatib berish asosida ish olib boradi.

Politologiya tarix fani bilan ham yaqin aloqada bo‘ladi. Ularning har ikkalisiga xos bo‘lgan umumiylik jamiyatning siyosiy hayoti va siyosiy munosabatdarida ro‘y beradigan voqea-hodisalarni ularning kelib chiqish davri bilan bog'liq holda o‘rganishdan iborat. Lekin shunga qaramasdan politologiya tarix fanidan o‘zining predmetiga ko‘ra farq qiladi. Politologiyada jamiyat hayotida ro‘y beradigan siyosiy voqea-hodisalar asosan hozirgi kunning o‘zgarishlari bilan bog'liq holda o‘rganiladi. Politologiya huquqiy fanlar bilan ham chuqur aloqada bo‘ladi. Masalan, agar "Politologiya" fanida davlat siyosatning sub'ekti sifatida o‘rganilsa, "Davlat va huquq nazariyasi"da esa, davlatning tuzilishi, uning turlari, maqsad va vazifalari, funktsiyalari, qisqasi, davlatning jamiyat hayotidagi faoliyati bilan bog'liq masalalar o‘rganiladi.

Shunday qilib ko‘ramizki, politologiya siyosiy fanlar bilan yaqin aloqada bo‘ladi va jamiyat hayotining xilma-xil masalalarini o‘rganishda ularda ishlab chiqilgan nazariy xulosalarga va amaliy tajribalarga asoslangan holda ish olib boradi. Har bir fanning boshqa fanlardan farqini uni predmeti aniqlab beradi. Mazkur ma'noda politologiya deganimizda jamiyat hayotining barcha jabhalari bilan uzviy bog'lanib ketgan, ulaming hammasiga ta'sir o‘tkaza oladigan siyosiy munosabatlar va siyosiy jarayonlarning mohiyati chuqur talqin etilgan ilm-fan sohasini anglashimiz kerak.

Siyosatshunoslikning boshqa ijtimoiy fanlar tarkibidan mustaqil fan sifatida ajralib chiqish jarayoni XIX o‘rtalaridan XX asr boshlariga qadar davom etdi. Huddi shu davrda u mustaqil fan sifatida to‘liq shakllandi. Bu jarayonda siyosiy tadqiqotlar bilan shug'ullangan ilmiy markazlar muhim rol o‘ynadi. Jumladan, 1871 yilda Frantsiyada "Siyosiy fanlarning ozod (erkin) maktabi" ish boshladi (hozir bu maktab Parij universitetining siyosiy tadqiqotlar markaziga aylangan). AQShning Kolumbiya universitetida 1880 yilda siyosiy fanlar maktabi, Angliyada 1895 yilda iqtisodiy va siyosiy fanlarning London maktabi, 1903 yildan boshlab esa siyosiy fanlarning Amerika assotsiatsiyasi faoliyat yurita boshladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hans Xaynts Holz: Strömungen va Tendenzen im Neomarksmus. Karl Hanser Verlag, Myunxen 1972
2. Horst Myuller: Praxis va Hoffnung. Falsafa va Wissenschaft gesellschaftlicher Praxis von Marks bis Bloch va Lefebvre o‘rganish. Germinal Verlag, Bochum 1986
3. https://kompy.info
4. https://arxiv.uz